



METHODS OF RAISING POLITICAL AWARENESS IN SOCIETY THROUGH MEDIA SPACE AND DIGITAL INFORMATION SYSTEMS

Bahodir Eshbekov

Independent Researcher, PhD

Uzbekistan University of World Languages

E-mail: bahodireshebekov727@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Media space, digital information systems, political thinking, civic consciousness, political culture, social networks, e-government, media literacy, political activity, information technologies.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the role of modern media space and digital information systems in the formation and promotion of political thinking in society. The impact of information technologies on political processes, their role in the development of civic consciousness, as well as effective methods that can be used to increase political activity are highlighted.

The author shows ways to develop political thinking through media literacy, e-government, social networks and online educational platforms. The article is devoted to the current aspects of increasing political culture and civic responsibility in the modern information society.

MEDIA MAKON VA RAQAMLI AXBOROT TIZIMLARI VOSITASIDA JAMIYATDA SIYOSIY TAFAKKURNI YUKSALTIRISH USULLARI

Bahodir Eshbekov

Mustaqil tadqiqotchisi, PhD

O'zbekiston jahon tillari universiteti

E-mail: bahodireshebekov727@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Media makon, raqamli axborot tizimlari, siyosiy tafakkur, fuqarolik ong, siyosiy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, e-hukumat, media savodxonlik, siyosiy faollik, axborot texnologiyalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy media makon va raqamli axborot tizimlarining jamiyatda siyosiy tafakkurni shakllantirish va yuksaltirishdagi o'zni tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining siyosiy

jarayonlarga ta'siri, fuqarolik ongining rivojlanishidagi roli, shuningdek, siyosiy faollikni oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usullar yoritilgan. Muallif media savodxonlik, e-hukumat, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ta'lim platformalari orqali siyosiy tafakkurni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib beradi. Maqola zamonaviy axborot jamiyatida siyosiy madaniyat va fuqarolik mas'uliyatini oshirishning dolzarb jihatlariga bag'ishlangan.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ОСВЕДОМЛЁННОСТИ ОБЩЕСТВА ЧЕРЕЗ МЕДИАПРОСТРАНСТВО И ЦИФРОВЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ

Баходир Эшбеков

Независимый исследователь, доктор философии

Узбекский университет мировых языков

Электронная почта: bahodireshbekov727@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
медиапространство, информационные системы, мышление, гражданское сознание, политическая культура, социальные сети, электронное правительство, медиаграмотность, политическая активность, информационные технологии.	цифровые, политическое, гражданское сознание, социальные сети, правительство, политическая	В статье анализируется роль современного медиапространства и цифровых информационных систем в формировании и продвижении политического мышления в обществе. Рассматривается влияние информационных технологий на политические процессы, их роль в развитии гражданского сознания, а также эффективные методы повышения политической активности.
		Автор показывает пути развития политического мышления посредством медиаграмотности, электронного правительства, социальных сетей и онлайн-образовательных платформ. Статья посвящена актуальным аспектам повышения политической культуры и гражданской ответственности в современном информационном обществе.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot asrida media makon va raqamli axborot tizimlari inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, siyosiy jarayonlarga bo'lgan qiziqish, fuqarolik ongining oshishi va jamiyatda siyosiy tafakkurni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki,

fuqarolarning siyosiy faolligi bevosita ularning axborotdan foydalanish darajasi va media savodxonligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Demak, media makon – bu ommaviy axborot vositalarida aks etgan g'oyalar, mavzular, fikrlar va axborotlar yig'indisidir. U turli auditoriyalar uchun dolzarbligi, tezkorligi va ko'p talqinlarga ochiqqligi bilan ajralib turadi. Media makon vakillari matbuot, televideniye, radio va internet loyihalarini yaratishda ishtirok etadi.

Zamonaviy media maydoni raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritadi. Raqamli texnologiyalar elektron hisoblash vositalaridan foydalanib ma'lumot uzatishni ta'minlaydi. O'zbekiston raqamlashtirishga jiddiy e'tibor bera boshladi. Bu borada bir qancha strategiyalar, jumladan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, my.gov.uz portali orqali davlat xizmatlarining katta qismi raqamlashtirilib, millionlab fuqarolar undan foydalanmoqda. Internet foydalanuvchilari soni 27 milliondan oshdi. AKT sohasiga sarmoya jalb qilinib, axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymat oshdi, IT-parklar soni ko'paydi, minglab ish o'rinlari yaratildi. Optik tolali aloqa infratuzilmasi kengaytirilib, xalqaro uzatish quvvati bir necha baravarga oshirildi. Pandemiya raqamlashtirishning dolzarbligini yanada oshirdi. Umuman olganda, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi orqali barcha tarmoqlarda, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim va davlat xizmatlarida raqamli yechimlar joriy etilmoqda.

Strategiya doirasida fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, shuningdek, Mobile ID, raqamli pasport, "Raqamli idora" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. 2026-yilgacha raqamli iqtisodiyotni 2,5 baravarga, IT-eksportni esa 10 baravarga oshirish rejalashtirilgan.

OAVning roli ham ortib bormoqda. O'zbekiston OAV erkinligi, jurnalistlar huquqlari va axborot olish kafolatlariga oid qonunlarni qabul qildi. AOKA va Jamoatchilik kengashi tashkil etilib, media bozorini tartibga solish va himoya qilish mexanizmlari mustahkamlandi.

2016-yildan 2023-yilgacha OAVlar soni 626 taga ko'payib, 2140 taga yetdi. Internet nashrlari, nodavlat media vositalari soni ortdi. Davlat organlarining ochiqqligi va shaffofligini baholash tizimi joriy qilindi. Media makon va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti O'zbekistonda fuqarolik jamiyati, axborot erkinligi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida muhim omilga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishida O'zbekiston media makoni va raqamli transformatsiya jarayonlarining o'zaro aloqadorligi, davlat siyosatidagi o'rni va natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

1. Tahliliy (analitik) yondashuv;

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun hujjatlari, strategik dasturlar (masalan, "Raqamli O'zbekiston – 2030", "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"), statistik ma'lumotlar va rasmiy hisobotlar asosida chuqur tahlil olib borildi.

2. Tizimli yondashuv;

Media makon va raqamli texnologiyalarni alohida emas, balki ular o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqish asosida ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga ta'siri o'rganildi.

3. Taqqoslash usuli;

O'zbekistonning raqamlashtirish borasidagi siyosati boshqa ilg'or davlatlar, jumladan Janubiy Koreya, Estoniya, Xitoy kabi mamlakatlar tajribasi bilan solishtirilib, o'xshashlik va farqlar aniqlashga harakat qilindi.

4. Tarixiy yondashuv;

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning joriy etilish bosqichlari, media sohasining mustaqillikdan keyingi rivojlanish yo'li tarixiy ketma-ketlikda o'rganildi.

5. Empirik ma'lumotlardan foydalanish;

Davlat statistika qo'mitasi, IT-parklar, AKT vazirligi va boshqa rasmiy manbalardan olingan raqamlar, faktlar, tahlillar asosida real holatga baho berildi.

6. Huquqiy tahlil;

O'zbekiston Respublikasining media va axborot sohasiga oid qonunlari (masalan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish erkinligi to'g'risida", "Elektron hukumat to'g'risida" va boshqalar) normativ-huquqiy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston media makoni va raqamli transformatsiya jarayonlari so'nggi yillarda barqaror va tizimli asosda rivojlanib, bu sohalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar quyidagi asosiy natijalarni aniqlashga imkon berdi:

1. Media makonning kengayishi va raqamli tus olishi;

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, mamlakatda 2140 ta OAV faoliyat yuritmoqda, ularning 65 foizini nodavlat media tashkil etadi. Internet OAV sonining 745 taga yetgani esa media makonning raqamli ko'rinishga o'tganidan dalolat beradi. Bu jarayon media maydonida erkinlik, muqobillik va axborot olish imkoniyatlarini kengaytirdi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanishi;

2017–2022-yillar oralig'ida O'zbekistonda optik tolali aloqa infratuzilmasi qariyb 6 baravarga kengaydi (118 ming km), xalqaro ma'lumot uzatish quvvati esa 28 barobarga ortdi. Bu infratuzilma media vositalari, davlat xizmatlari va jamiyat hayotining raqamlashtirilishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

3. Elektron hukumat tizimining samaradorligi;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali taqdim etilayotgan xizmatlar ulushi 2022-yilga kelib 56 foizga yetgan. Bu orqali davlat boshqaruvi, hujjat aylanishi, axborot almashinuvi jarayonlari sezilarli darajada raqamlashtirildi. Ushbu tizim aholining davlat bilan o‘zaro aloqasini soddalashtirdi va shaffoflikni oshirdi.

4. IT-sektorning jadal o‘sishi;

IT-parklar faoliyati boshlanganidan buyon sohada eksport hajmi 50 baravarga oshib, 46 million AQSH dollariga yetgan. 500 dan ortiq kompaniyalar va 11 mingdan ziyod mutaxassislar ushbu tarmoqda faoliyat olib bormoqda. Bu esa O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishini kuchaytirayotganini anglatadi.

5. Normativ-huquqiy baza mustahkamlanmoqda;

So‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlar – “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Axborot olish erkinligi to‘g‘risida”, “Davlat boshqaruvi ochiqqligi to‘g‘risida” kabi me‘yoriy hujjatlar OAV erkinligi, jurnalistlar huquqlari va media faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlab bermoqda.

6. Raqamli transformatsiyaning davlat strategiyalaridagi aks etishi;

“Raqamli O‘zbekiston – 2030”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” kabi muhim hujjatlar orqali raqamlashtirish faqat texnologik emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayon sifatida qaralayotgani kuzatilmoqda. Bu strategiyalar raqamli xizmatlar, shaharlar, ta‘lim va sog‘liqni saqlashni modernizatsiya qilishni ko‘zda tutadi.

Nazariy tahlil. 2017–2023-yillarda OAVni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy asoslar shakllantirildi. Xususan:

- 2019-yilda “OAV mustaqilligini ta‘minlash va axborot xizmatlarini rivojlantirish”ga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi.

- 2022-yilgi qarorga binoan, OAV foyda solig‘i 50% ga kamaytirildi va sohaga moliyaviy imtiyozlar berildi.

- 6 yilda OAV va AKTga oid 3 ta O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni hamda 14 qaror va hukumat hujjatlari qabul qilindi.

Bu islohotlar OAVning “to‘rtinchi hokimiyat” sifatidagi mavqeini mustahkamladi, davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirdi va jamiyat bilan muloqotni kuchaytirdi.

So‘nggi yillarda internet media va bloggerlik faoliyati rivojlandi. Milliy qonunchilikda blogger tushunchasi huquqiy asosga ega bo‘lib, ular ham axborot tarqatuvchi sifatida e‘tirof etildi. Bu esa OAV erkinligi doirasini kengaytirdi, ammo ayrim bloggerlarning axloqiy va kasbiy mas‘uliyatdan yiroqligi muammoli holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Jurnalistika Ta'limi va Kadrlar Tayyorlashda 2018-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti sohaga zamonaviy, kasbiy mutaxassislar tayyorlamoqda. Ayni paytda universitetda 3500 dan ortiq talaba tahsil olmoqda.

Televidenie Rivoji va Raqamli Mediada quyidagi ishlar qilindi.

- “O'zbekiston-24”, “O'zbekiston tarixi” kabi telekanallar tashkil etildi.
- 2018-yildan boshlab teleko'rsatuvlar raqamli formatga o'tkazildi.
- Axborot-tahliliy ko'rsatuvlar soni ko'paydi: “Munosabat”, “Sharh”, “Xalq fikri” va boshqalar.

Televideniye nafaqat axborot berish, balki ijtimoiy muammolarni yoritish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qila boshladi.

OAVning Jamiyatdagi Roli

OAV jamiyat hayotidagi muammolarni yoritishga kirishdi. Bu orqali:

- Mansabdor shaxslarning javobgarligi oshdi.
- Blogger va jurnalistlar jamiyatdagi muammolarni ko'tarishga erkinlik oldi.
- OAV davlat siyosatini aholiga tushuntirishda muhim vositaga aylandi.

Xulosa. Hozirgi yuksak texnik vositalar hamda texnologiyalarga asoslangan zamonaviy media makon bilan milliy OAV bilan xorijiy matbuot o'rtasidagi hamkorlik rivojlanib bormokda. Hozirgi huquqiy davlatga o'tish transformatsiyasi davrida OAV jamiyat institutlari, a'zolarini davlat hokimiyati organlari bilan kommunikatsiyaviy aloqalarini bog'lashga harakat qilyapti. Lekin, OAVni kommunikatsiya sifatida amal qilishining asosiy salohiyati ishga solingani yo'q. Bu albatta, mamlakatda olib borilayotgan siyosiy islohotlar, mazmunij jihatlar hamda chin mohiyati hali zahiradagi resurslar sifatida saqlanib turibdi. Albatta, bu sohadagi muammolar faqat jamiyat institutlarining faolligi va samarali faoliyat yuritishi bilangina emas, balki OAVning turli maishiy va tor doiradagi muammolarni ko'tarish bilan chegaralanmasdan, millat va jamiyat miqyosidagi funksiyalarini ishga solishda mazkur institutlar bilan hamkorlik qilishi asnosida bartaraf etiladi. Zero bunday muhim va ustivor vazifalarni hal qilish oldimizda turgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan bo'lib qoladi. Media makon va raqamli axborot tizimlari hozirgi davrda jamiyat siyosiy tafakkurining shakllanishida eng muhim omillardan biriga aylandi. Ular orqali fuqarolar siyosiy hayotda faol ishtirok eta boshladi, axborotga erkin kirish imkoniyati ortdi va ijtimoiy faollik kuchaydi. Ammo bu vositalardan samarali foydalanish uchun media savodxonlik, axborot madaniyati va tanqidiy tafakkur darajasini oshirish lozim. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida siyosiy bilimlarni ommalashtirishga yo'naltirilgan platformalar, loyihalar va innovatsion yondashuvlar amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.

2. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun. // www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ–4354-sonli qarori – “OAV mustaqilligini ta‘minlash va axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PQ–289-sonli qarori – “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-maydagi qarori – “O‘zbekiston-24” axborot-tahliliy telekanalini tashkil etish haqida.
6. Axmedov B. “Ommaviy axborot vositalari: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020.
7. Turg‘unov Q. “Jurnalistika asoslari”. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
8. Umirov M. “Media savodxonlik va bloggerlik asoslari”. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2022.
9. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (UzJOKU) ilmiy jurnali: “Markaziy Osiyoda Media va Kommunikatsiyalar”, 2019–2023 yillar sonlari.